

XVI-XVII ASRLARDA SHAYBONIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI VA MADANIY HAYOT

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Sanoyeva Ruxshona Siroj qizi

Annotatsiya: XVI-XVII arlarda Shayboniylar davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiy etib, madrasalar ilmiy markaz sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ushbu davrda adabiyot san'at va me'morchilik rivojlanib, fiqh, hadis, falsafa va tibbiyot sohalarda muhim asarlar yaratildi.

Kalit so'zlar: Xattotlik, tarixnavislik, adabiyot, fiqh, tibbiyot, me'morchilik, madrasa, Abdullaxon II, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Subhonqulixon.

XVI-XVII aslarda Movorounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlangan an'analarni shayboniylar sulolasini ham davom ettirdi. Bu davrda madaniy hayotning ko'plab jahbalarida: adabiyot, musiqa, tarixnavislik, xattotlik, epigrafika, me'morchilik, naqqoshlik va shu kabi turli sohalarda rivojlanish jarayoni kuzatildi. Adabiyotning turli janrlarida Muhammad Solih, Vosifiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Xoja Afsodiy, Mushfiqiy singari olimlar Qalam tebratdilar. Ayniqsa, bu davrda yaratilgan asarlar orasida Buxorolik adabiyotshunos shoir Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (Do'stlar yodnomasi) asarini keltirish mumkin. Ushbu asarda XVI asrda Movorounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan 228 ta shoirlar, jumladan, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Koshifiy, Ahmad Yassaviy, Baqirg'oniy, Shayx Xudoydod, Zangi ota kabi tasavvuf namoyondalarini hayoti, tarixiy voqealar, ilm-fan sohasidagi yutuqlar va turli shaharlardagi me'morchilik haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur asar AbdullaxonII ga atab yozilgan va O'rta Osiyo, Hindiston va Eron haqida ma'lumot beruvchi boy manba hisoblanadi. Shayboniy hukumdorlarni o'zlari ham adabiyot sohasida qalam

tebratganlar. Xususan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Do'st Muhammadxon (Navro'z Ahmadxonning o'g'li) larning asarlari bizgacha yetib kelgan. XVI-XVII asrlarda Movorounnahrda tarixnavislik sohasi ham rivoj topadi. Shayboniylar sulolasiga asoschisi Shayboniyxonga atab yozilgan Mulla Shodiyoning "Fatxnama", Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Fazullox Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul vaqoe", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", muallifi no'malum bo'lган "Tavorixi Go'zida", Nusratnama kabi asarlar fikrimiz dalilidir. Umrining asosiy qismini jang-u jadallarda o'tkazgan Muhammad Shayboniyxon ayni paytda she'riyat bilan ham shug'ullangan. U o'zidan yuqori saviyali badiiy asarni meros qilib qoldirgan. Uning asarlari bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilgan. Masalan, yozib qoldirgan she'rlari to'plami bo'lmish "Devon"i Istanbul shahri kutubxonasida saqlanib kelmoqda. Shayboniyxon o'zining she'rlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shaharlarini eng ko'p madh etgan. Chunonchi, bir she'rida Samarqandni jannatga qiyoslaydi. Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxon o'zining g'azal, ruboiy, qit'a va tuyuqlari bilan she'riyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U "Ubaydiy", "Ubaydullo" va "Qul Ubaydiy" taxalluslari bilan ijod qilgan. U fors va arab tillarini yaxshi bilgan hamda shu tillarda ham ijod etgan. O'zbek, fors va arab tillaridagi she'rlari uch devonda to'plangan. Keyinchalik ular bitta muqova ichiga jamlangan va "Kulliyot" deb nomlangan.

XVI asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Boburdir. Boburnomani A.Beverij Boburga shunday baho bergen edi: "... sahovatliligi, mardligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podsholar ichida Boburga teng keladigan birorta podsho topa olmaymiz".

"Bobur 12 yoshidan boshlab umrining oxirigacha deyarli uzlucksiz urush va yurishlar bilan band bo'ldi. Lekin, shunga qaramay, u keng va chuqr bilim olgan hamda ajoyib iste'dodi bilan o'z davrining yirik madaniyat arboblaridan

biri bo'lib yashagan edi. U qayerda bo'lmasin, doimo ilm – fan, san'at va adabiyot oqillari bilan yaqindan aloqa bog'lar, ularga homiylik qilar va turli ilmiy – adabiy suhbatlar hamda munozaralar uyushtirar edi. Bobur 16 – 17 yoshlaridan boshlab, badiiy ijodiyot bilan shug'ullanadi. Shayboniylar davrida kitobat ishlariga qo'lyozmalarni husnixat bilan ko'chirish yo'li bilan nusxani ko'paytirish, ularni voqeaband miniatyuralar bilan bezatish, chiroyli va chidamli muqovalarga jamlashga katta e'tibor berilgan. Shu tariqa, Alisher Navoiy homiyligida Kamoliddin Behzod va uning safdoshlari tomonidan yaratilgan Hirot rassomchilik maktabi vujudga keladi.

Shayboniy hukumdorlari bu davrda me'morchilik sohasiga ham e'tibor qaratdilar. Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Balx, Marv, Turkiston, Hirot kabi shaharlarida ko'plab masjid, madrasa, tim, xonaqoh, karvonsaroy, ko'riklar va sardobalar bunyod etilgan. Misol tariqasida, Samarqandda Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said, Qulbobo ko'kaldosh, Samarqanda yaqinidagi suvayirg'ich, Buxoroda barpo qilingan Mir Arab, Modarixon madrasasi, Toshkentdag'i Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari, Turkistondagi Shayboniyxon masjidi, Karmanadagi Qosim shayx masjidi, Hirotdagi Ko'kaldosh madrasasi shular jumlasidandir. Buxoro xonligida me'morchilik ishlari Abdullaxon II (1583-1598) davrida yuksak cho'qqiga erishadi. Manbalarda xabar berilishicha, Abdullaxon II davrida bunyod etgan obidalar soni 1000 dan ortiq bo'lgan.

XVI-XVII asrlarda shayboniylar davrida me'morchilik bilan bir qatorda rassomlik, xattotlik, musiqa, fiqh, tibbiyat, riyaziyyot (matematika), handasa (geometriya) va ilmi nujum (astronomiya) sohalarida ham rivojlanish kuzatiladi. 1538-1598 yillarda yashab ijod etgan Mushfiqiy o'z davrining falsafa, astronomiya, hisob, fiqh, fizika, musiqa, arab tili kabi sohalarda ijod etgan shoir sifatida tanilgan. Bu davrda tibbiyat sohasida ham qator asarlar yaratilgan. Masalan, Ko'chkunchixon va Abu Said davrida yashagan tabib va olim Sulton Ali "Dastur al-iloy", "Muqaddimai dastur al-iloy" asarlari yozilgan. Ushbu asarlarda inson tanasidagi kasalliklarni sabablari hamda ularni davolash to'g'risida

ma'lumotlar berilgan. Abdulatifxonning shaxsiy tabibi hisoblangan Muhammad Yusuf, Navro'z Ahmadxon saroyida faoliyat ko'rsatgan Shoh Alilar "Ko'z kasalligiga oid asarlar sarasi", "Ko'z tabiblari uchun qo'llanma" kabi asarlarni yaratganlar. Shuningdek, 1562-1567 yillarda tabib Ubaydulloh Kahhol tibbiyotga oid "Kasallik shifosi" nomli qomusiy asarini yaratadi. Mazkur asarda davo uslublari, tashxis qo'yish va dori tayyorlashga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Subhonqulixon tomonidan Balx va Buxoroda ko'plab me'moriy obidalar, jumladan, Balxda madrasa, Buxoroda Dor ush-shifo, Registonda katta hovuz; Arkda salomxona va jome masjidi, shuningdek, Aminobodda chorbog' qurilgan. Bu davrda, ayniqsa, tibbiyot ilmi va adabiyot rivojlangan. Dor ush-shifoda bemorlarni davolash bilan bir qatorda ilmiy ishlar ham olib borilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U „Ihyo at-tibbi Subhoniy” (Subhoniy tibbiyoti bo'yicha davolash), „Lubb ul-lavoyih ul-qamar fil ixtiyorot” (Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati) nomli ilmi nujumga oid risola yozgan. Uning „Ihyo at-tibbi Subhoniy“asari qo'lyozmasining bir nusxasi Budapeshtdagi kutubxonada saqlanadi. Subhonqulixon „Nishoniy“taxallusi bilan she'rlar bitib, saroyda o'tkazilgan mushoiralarda o'zi ham she'rlar aytgan.

Xulosa qilib aytganda Shayboniylar davrida ham temuriylar zamonidagi yuksalishning ruhi so'nmagan edi. Nafaqat poytaxt shaharlar bo'lmish Samarqand va Buxoroda, balki shular bilan bir qatorda Karmana hududlarida ham bunyodkorlik ishlari davom etar, barcha viloyatlarimizda ham bizkim o'zbeklar bag'ridan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, shoirlar, tarixchilar, ulamolar, san'atkorlar va shu kabi madaniyat, ilm – fan, adabiyot va san'at ahli samarali va barakali faoliyat ko'rsatar edilar. Shaybiniylar davrida ilm - fan madaniyat rivojlanib temuriylar qodirgan meros davom ettirildi. Hukmdorlardan Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi shoirlarni xalqimizning ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi nihoyatda katta ekanligi dalillar asosida asoslandi. Madrasalarr ilmiy faoliyat markazlari bo'lib, tibbiyot, astronomiya va matematika sohalarida ilmiy izlanishlar olib borildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хофиз Таништ Бухорий. Абдулланома. биринчи китоб / форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, суз боши ва изохлар муаллифи Б.Ахмедов. – Тошкент:Шарқ, 1999.-Б. 60-62
2. Muhammad Solih “Shayboniynoma”. Т., 1998 yil. b- 92.43
3. “O’zbekiston ijtimoiy fanlar” jurnali. 2005 yil. №4.